

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA’MINLASH
MASALALARI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya
2024-yil, 15-oktyabr**

**Republic-wide scientific and scientific-technical conference
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN
ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF
PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION
October 15, 2024**

**Республиканскую научно-техническую конференцию на тему
«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА
ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,
которая состоится 15 октября 2024 года**

JIZZAX – 2024

YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI

Alibekov Davron Abdurakibovich

O‘zMU Jizzax filiali Oila psixologiyasi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida innovatsion yondashuv innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat, innovatsion infrastruktura, va modernizatsiyasiga asoslangan strategik ahamiyatining nazariy jihatlarini haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion, modernizatsiya, ta’lim, faoliyat, salohiyat, infrastruktura, yondashuv, strategiya, tendensiya, globallashuv, texnologiya, jamiyat, tafakkur.

Abstract:

This article discusses the theoretical aspects of the strategic importance of the innovative approach in the educational system based on innovative activity, innovative potential, innovative infrastructure, and modernization.

Key words: innovative, modernization, education, activity, capacity, infrastructure, approach, strategy, trend, globalization, technology, society, thinking.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor, amalga oshirilayotgan islohatlar negizida davlatni va jamiyatni rivojlantirish masalasi yotadi. Chunki, ta’lim tizimini rivojlantirmay turib jamiyatni o‘zgartirish qiyin jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham Respublikamizda ushbu sohaga oid bir qator me’yoriy xujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan hisoblanadi.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;
- ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish;
- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
- oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash;
- oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish;
- oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash [1].

Oliy ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirish jarayoni o‘zida ijtimoiy rivojlanishning sifat bosqichiga olib chiqadigan, o‘ziga xos ijobiy o‘zgarishlar va yangilanishlarni vujudga keltiradigan murakkab, bir butun va dinamik faoliyatini qamrab oladi. Ta’limdagi innovatsion o‘zgarishlar – bu tizimli yangicha texnologiyalar, axborotlashtirish va yangiliklarni yaratish va joriy etish, tizimni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan jarayonlar orqali inson salohiyatini yuksaltirish va pirovardida jamiyat sohalarida muhim sifatini o‘zgarishlar yasash demakdir.

Shuningdek, oliy ta’limda innovatsion o‘zgarishlar uning barcha tizimlari faoliyatida ish jarayonini yangicha asoslar bilan o‘zgartirish orqali keng qamrovli modernizatsiya qilishdir. Bu jarayonda oliy ta’lim tizimi faoliyatining samaradorligi oshadi, pirovardida oliy ta’lim sohasi yangi rivojlanish bosqichiga o‘tib, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu tendensiya bugungi globallashuv bilan bog‘liq raqobatga asoslangan sharoitda davrida jamiyat hayotining barcha tizimlari bilan aloqador holda kunda ta’limning barcha sohalarini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirishga katta ehtiyoj hosil qilmoqda.

Jamiyatimizda oliy ta'limni innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va bu orqali ijtimoiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuning bilan birgalikda ilm-fan sohasini ham innovatsion faoliyatini ta'minlash borasida keng qamrovli faoliyat kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish" [2] ko'zda tutilgan.

Har tomonlama bilimlarni egallagan, innovatsion tafakkurga ega bo'lgan yoshlar mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining asosiy strategik zahiralari bo'lib hisoblanadi, ularning ishtirokisiz jamiyati rivojlantirishning imkoniyati yo'q. Jamiyatni modernizatsiya qilish yo'lida birmuncha murakkab, keng qamrovli vazifalarni hal etishda katta yoshdagi kadrlar bilan bir qatorda yoshlar ham muhim ijtimoiy kuch sifatida ishtirok etadi, uning salmog'ini ta'minlashga ko'maklashadi.

X.Abduvattorovning fikricha, "Innovatsiyalar ishlab chiqarish sohasida, iqtisodiy, huquq va ijtimoiy munosabatlar, fan, madaniyat, ta'lim va boshqa sohalarga mansub bo'lishi mumkin. Innovatsion strategiyalar ishlab chiqish uchun barcha boshqaruv pog'onalarida yangiliklar kiritish tarkibida ijtimoiy xizmatlarni ham hisobga oladigan talqin to'g'ri bo'ladi"[3]. Mazkur fikrda innovatsiyaga taalluqli bo'lgan birmuncha o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatilgan. Shuning bilan birgalikda innovatsiyalarning ijtimoiy hayot va munosabatlar bilan bog'liq tomonlarini ham yoritgan. Shuni ta'kidlash lozimki, olim ushbu o'rinda innovatsiyalarning yaratilishida insonning o'rnini va roli borasidagi masalalarga to'xtalmagan.

Innovatsiya natijasida oliy ta'limning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy islohotlarga mos holda o'zini-o'zi tashkil etuvchi soha sifatida maqomi va darajasi oshadi. Innovatsiyalar oliy ta'limning har bir bosqichi va bo'g'iniga kirib borib, uning jamiyat rivoji uchun muhim yangiliklar yaratish borasidagi mazmunini mustahkamlaydi. Innovatsion jarayonlar tashkil etilib borgan sari oliy ta'limda ishtirok etuvchi barcha sub'ektlarning yangiliklar yaratishga qaratilgan faolligi va moyilligi oshib boradi. Shunday qilib, "Oliy ta'limda innovatsiyalar ta'lim jarayoniga yangiliklar kiritish, ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun uning texnologiyalari va mazmuniga o'zgartirish kiritish tushuniladi"[4].

Oliy ta'limda yaratiladigan innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini uning turlari, maqsad va vazifalari, metodologik ta'minoti, ilmiyligi, faoliyat xarakteri, faoliyat turlari, joriy etilish ko'lamini, natijadorligi, yangilik ko'lamini, ijobiy oqibatlarini, miqdor ko'rsatkichlari, sifat va samaradorligi kabi omillariga ko'ra baholash mumkin.

Oliy ta'limda innovatsiyalarning yaratilishi, uning samaradorligi va amaliyotga joriy etilishi ko'lamini uning ilmiy ishlanishining har tomonlama puxtaligi va loyiha mukammalligi bilan bog'liq. Ta'limda innovatsion jarayonlarning vujudga kelish va joriy etish bosqichlari to'g'risida V.Lazeroq quyidagicha ta'kidlaydi:

- o'zgarishlar ko'lamiga qarab ehtiyojlarni aniqlash;
- mavjud vaziyatni tahlil etish va axborotlar to'plash;
- yaratiladigan yangilik bo'yicha dastlabki tanlov yoki uni mustaqil ishlab chiqish;
- yangilikni amaliyotga joriy etish (o'zlashtirish) bo'yicha qaror qabul qilish;
- yangiliklarni joriy etish bo'yicha ehtimoliy samarani prognoz qilish va amaliyotga joriy etish jarayoni;
- yangiliklarni ta'lim amaliyotining kundalik jarayonlari va qo'shimcha ta'limda, ta'limning turli tuzilmalarda uzoq vaqt foydalanish [5].

Oliy ta'limni rivojlantirishda innovatsion omilning ustivorligini tashkil etilishini ijtimoiy tavakkalchilik (risk) jarayoniga ham o'xshab ketadi, chunki, innovatsion ta'lim oddiy ta'limning muqobili hisoblanib, jamiyatda sobiq ta'limiy qadriyatlarni ko'pgina ko'rinishlarini siqib chiqaradi.

Natijada oliy ta'limda birqancha davr sinov muddati bo'lib, eskilik va yangilik o'rtasida qarama-qarshiliklar kuzatilishi mumkin. Bu davrda ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning zamonaviy qarashlari, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirishi va yangiliklarni qabul qilish darajasining yuqoriligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, oliy ta'lim tizimi xodimlarining ham innovatsion dunyoqarashining mukammalligi ta'limni modernizatsiya qilishning muhim elementi hisoblanadi. Bu jarayonni samarali ta'minlash uchun oliy ta'lim tizimida tuzilmaviy, tizimli va funksional darajadagi o'zgarishlarni ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda oliy ta'lim ishtirokchilarining kasbiy mahorati, zamonaviy axborotlar va ma'lumotlar bilan ta'minlanganligi, psixologik va pedagogik tayyorgarligi kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
3. Abdusattorova X. Innovatsion strategiya. -Toshkent: Tafakkur bostoni, 2012. –B. 15.
4. Rapasevich Ye. Bolshaya sovremennaya ensiklopediya. –Minsk, Sovremennoe slovo, 2005. -S. 198.
5. Lazarev V. Ponyatie pedagogicheskoy i innovatsionnoy sistema shkoly. //Selskaya shkola, 2003. №1.-S.4.

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ АДАПТИВ БОШҚАРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ПЕДАГОГИК ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШ УСТУВОР ОМИЛ СИФАТИДА

Джуроев Акбар Салимович
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Олий таълим тизими кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти

Аннотация:

Мақолада олий таълим муассасаларида адаптив бошқарувнинг инновацион ривожлантириш вазифасининг долзарблиги, мураккаблиги ва кўп қирралилиги уни ҳал қилишнинг кўплаб ёндашувлари, самарали бошқарувнинг тизимини модернизация қилиш келтирилган.

Калит сўзлар: бошқарув, адаптив, модернизация, трансформация, ўқув-тарбия жараёнлари

Бошқарувнинг рационалиги, шунингдек, ўз вақтида, ҳаракатга керакли тузатишлар киритиш учун самарадорлик кўрсаткичлари эволюциясини доимий равишда ўлчаш қобилиятини ҳам талаб қилади. Дарҳақиқат, бу бошқарув аппаратини модернизация қилиш дастурлари марказида бўлиши керак бўлган бошқарув маълумотларини ишлаб чиқиш, айланиш ва улардан фойдаланишнинг яхлит муаммосини ташкил этади. Шунини таъкидлаш керакки, ушбу модернизация нафақат янги воситаларни жорий этиш натижасида юзага келади, балки маълумотлардан фойдаланиш имкониятларини ва уларнинг ривожланишни бошқариш жараёнларига интеграциялашувини талаб қилади. Одатда бошқарувни қайта ташкил этишда номарказлаштириш кўплаб иллюзияларни келтириб чиқарди. Узоқ вақт давомида маҳаллий даражалар манфаати учун марказий бошқарув даражаларини юмшатиш воситаси сифатида ва олий таълим маъмуриятини фуқароларга яқинлаштириш воситаси сифатида ўйлаб топилган, шу боисдан ҳам у икки томонлама муаммолардан азият чекмоқда. Бир томондан, бошқарув ҳужжатларини номарказлаштириш бошқарувнинг турли